UO‘K 811.512.133'37

“KONSEPT” TUSHUNCHASINING LINGVOKOGNITIV, LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI VA YADRO-PERIFERIYA MUNOSABATLARI

Xaliqulova Musharraf Egamnazar qizi,
Navoiy davlat universiteti
Ingliz tilshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi
mashakhalikulova@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada zamonaviy kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslikda muhim ilmiy kategoriya sifatida qaralayotgan “konsept” tushunchasining tabiati, mohiyati va strukturaviy xususiyatlari tahlil qilinadi. Konseptning lug‘aviy ma’no, tushuncha va so‘zdan farqli jihatlari ochib berilib, uning inson ongida bilim, tasavvur, mental obraz, assotsiatsiya va baholash munosabatlarini mujassamlashtiruvchi murakkab mental tuzilma ekanligi asoslanadi. Tadqiqotda S.A. Askoldov, D.S.Lixachyov, Y.S. Stepanov, V.I. Karasik, S.G. Vorkachev, Z.D. Popova va I.A. Sternin kabi olimlarning konsept haqidagi ilmiy qarashlari qiyosiy tahlil qilinadi. Shuningdek, konseptosfera tushunchasi, konseptlarning milliy-madaniy va universal xususiyatlari hamda ularning turli til birliklari orqali verbalizatsiya qilinishi yoritiladi. “Ta’lim” konsepti misolida konseptning yadro va periferik qatlamlari, ularning semantik, assotsiativ, metaforik va aksiologik xususiyatlari ko‘rsatib beriladi. Tadqiqot natijasida konseptni til, tafakkur va madaniyat o‘rtasidagi uzviy munosabatni ta’minlovchi ko‘p qatlamli kognitiv-lingvomadaniy birlik sifatida baholash mumkinligi asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *konsept, konseptosfera, kognitiv tilshunoslik, verbalizatsiya, yadro, periferiya, aksiologik component.*

LINGUOCOGNITIVE, LINGUOCULTURAL FEATURES, AND NUCLEAR-PERIPHERAL RELATIONS OF THE CONCEPT “CONCEPT”

Abstract. *This article examines the nature, essence, and structural characteristics of the concept as an important scientific category in contemporary cognitive linguistics and linguocultural studies. It explores the differences between a concept, lexical meaning, notion, and word, emphasizing that a concept represents a complex mental structure integrating knowledge, representations, mental images, associations, and evaluative attitudes in human cognition. The study provides a comparative analysis of the theoretical approaches to the concept developed by S. Askoldov, D. Likhachev, Yu. Stepanov, V. Karasik, S. Vorkachev, Z. Popova, and I. Sternin. Particular attention is given to the notion of the conceptual sphere, the national-cultural and universal characteristics of concepts, and their verbalization through various linguistic units. Using the concept of “education” as an example, the study demonstrates the nuclear and peripheral layers of a concept and examines their semantic, associative, metaphorical, and axiological characteristics. The findings support the view that a concept should be understood as a multilayered cognitive and linguocultural unit that establishes an integral relationship between language, cognition, and culture.*

Keywords: *concept, cognitive linguistics, conceptual sphere, mental structure, lexical meaning, verbalization, nucleus, periphery, axiological component.*

ЛИНГВОКОГНИТИВНЫЕ, ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПОНЯТИЯ “КОНЦЕПТ” И ЕГО ЯДЕРНО-ПЕРИФЕРИЙНЫЕ ОТНОШЕНИЯ

Аннотация. *В статье рассматриваются природа, сущность и структурные особенности концепта как одной из важных научных категорий современной когнитивной лингвистики и лингвокультурологии. Раскрываются различия между концептом, лексическим значением, понятием и словом, обосновывается положение о том, что концепт представляет собой сложную ментальную структуру, объединяющую знания, представления, ментальные образы, ассоциации и оценочные отношения в сознании человека. Проводится сопоставительный анализ научных взглядов на концепт С. А. Аскольдова, Д. С. Лихачёва, Ю. С. Степанова, В. И. Карасика, С. Г. Воркачева, З. Д. Поповой и И. А. Стернина. Особое внимание уделяется понятию концептосферы, национально-культурной и универсальной специфике концептов, а также их вербализации посредством различных языковых единиц. На материале концепта «образование» рассматриваются ядерные и*

периферийные компоненты концептуального поля, выявляются их семантические, ассоциативные, метафорические и аксиологические особенности. Результаты исследования позволяют определить концепт как многослойную когнитивно-лингвокультурную единицу, обеспечивающую взаимосвязь языка, мышления и культуры.

Ключевые слова: *концепт, когнитивная лингвистика, концептосфера, вербализация, ядро, периферия, аксиологический компонент.*

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda **“**konsept”ning tabiati, mohiyati va strukturaviy xususiyatlarini o‘rganish kognitiv tilshunoslik hamda lingvomadaniyatshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Mazkur masalaning dolzarbligi, avvalo, konsept hodisasining ko‘p qirrali tabiati va uni turli ilmiy paradigmalar doirasida turlicha talqin qilish mumkinligi bilan belgilanadi. Shu sababli “konsept” tushunchasiga nisbatan yagona, universal ta’rifning mavjud emasligi tadqiqotchilar tomonidan alohida qayd etiladi.

Bugungi kunda “konsept” atamasi kognitiv fan, semantika, kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslikning asosiy ilmiy-metodologik tushunchalaridan biri sifatida qaralmoqda. Biroq mazkur terminning ilmiy muomalada keng qo‘llanilishi uning mazmuniy chegaralarining nisbatan noaniqligi, ayrim tadqiqotlarda subyektiv talqin qilinishi hamda unga yaqin mazmun yoki shaklga ega bo‘lgan boshqa terminlar bilan chegaralarining qorishib ketishi bilan bog‘liq muammolarni ham yuzaga keltiradi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, konsept tushunchasi kognitiv va lingvomadaniy yondashuvlar kesishmasida tizimli ravishda talqin qilinib, uning til, tafakkur va madaniyatni bog‘lovchi ko‘p qatlamli mental birlik sifatidagi xususiyatlari umumlashtiriladi. Shuningdek, konseptning mazmuniy tarkibida nominativ, kognitiv, obrazli va aksiologik qatlamlarning o‘zaro munosabati yaxlit tizim sifatida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda konsept va so‘z, konsept va tushuncha, konsept va lingvomadaniy birlik o‘rtasidagi munosabatlarni farqlashga, konseptosferaning esa individual konseptlarning oddiy yig‘indisi emas, balki o‘zaro semantik va madaniy aloqadorlikdagi tizim ekanligini asoslashga e’tibor qaratiladi.

Tadqiqotning yana bir ilmiy yangiligi konseptni faqat nominativ birlik sifatida emas, balki xalqning tarixiy-madaniy tajribasi, qadriyatlari va dunyoni idrok etish usullarini aks ettiruvchi dinamik mental tuzilma sifatida baholash bilan belgilanadi. Bu yondashuv konseptning milliy-madaniy xususiyatlarini aniqlash va uning turli tillardagi verbal ifodalarini qiyosiy o‘rganish uchun nazariy asos yaratadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi konsept va lingvomadaniy konsept tushunchalarining ilmiy-nazariy mohiyatini aniqlash, ularning kognitiv hamda lingvomadaniy xususiyatlarini umumlashtirish va konseptosfera bilan o‘zaro munosabatini yoritishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun konsept tushunchasining lingvistik tadqiqotlarda shakllanish bosqichlarini aniqlash, mavjud ilmiy yondashuvlarni qiyosiy tahlil qilish, konseptning tarkibiy komponentlarini belgilash hamda uning milliy-madaniy mazmunini ochib berish kabi vazifalar belgilandi.

Adabiyotlar tahlili. Konseptni oddiy so‘z yoki lug‘aviy ma’no bilan tenglashtirish mumkin emas. U inson ongida shakllanadigan, muayyan obyekt, hodisa, harakat yoki jarayon haqidagi bilim, tasavvur, obraz, baho va assotsiatsiyalarni birlashtiruvchi murakkab mental tuzilma sifatida namoyon bo‘ladi. “Konsept” terminining dastlabki ilmiy talqinlaridan biri S.A. Askoldov tomonidan 1928-yilda ilgari surilgan bo‘lib, olim konseptni tafakkur jarayonida bir turga mansub bo‘lgan predmetlar, harakatlar va aqliy funksiyalarning ko‘plab konkret namunalari o‘rnini bosuvchi mental birlik sifatida izohlaydi [1, 28].

Mazkur yondashuvning mohiyati shundan iboratki, inson biror obyekt yoki hodisani idrok etishda uning barcha konkret namunalari haqida alohida-alohida tasavvur hosil qilishi shart emas. Aksincha, inson ongida ushbu obyekt yoki hodisaning muhim va umumiy belgilarini birlashtiruvchi umumlashgan mental model shakllanadi. Masalan, *“o‘simlik”* konseptini olaylik. “O‘simlik” so‘zining lug‘aviy ma’nosi tirik organizmlarning muayyan biologik guruhi, ya’ni “havo va tuproqdagi organik va anorganik moddalar bilan oziqlanadigan, anorganik moddalarni organik moddalarga aylantirish xususiyatiga ega bo‘lgan, odatda biron joyga o‘rnashgan holda rivojlanadigan organizm” degan ma’noni anglatsa-da [2, 173], inson ongida ushbu nom bilan bog‘liq ancha keng mazmuniy qatlam faollashishi mumkin. Jumladan, *daraxt, gul, barg, ildiz, poya, o‘sish, yashillik, tabiat, meva, parvarish* kabi tasavvur va bilimlar mazkur konseptual maydon tarkibida namoyon bo‘lishi mumkin. Demak, “o‘simlik” konsepti faqat “*plant”* leksemasining lug‘aviy mazmuni bilan cheklanmaydi, balki u insonning ushbu obyekt haqidagi bilimlari, tasavvurlari, obrazlari, tajribasi va assotsiativ bog‘lanishlarini ham qamrab oladi.

Shu o‘rinda Askoldovning konseptni mental o‘rinbosar sifatida talqin qilishi alohida ahamiyatga ega. Masalan, *“daraxt”* konsepti inson ongida *chinor, archa, terak, eman, olma yoki tut* kabi daraxtlarning har birini alohida tasavvur qilishni talab etmaydi. Ularning umumiy va muhim xususiyatlari ongda yagona,

umumlashtirilgan mental birlik orqali ifodalanadi. Shunday qilib, konsept koʻplab konkret obyekt va hodisalarni inson ongida umumlashtirish, tizimlashtirish va ular haqidagi bilimlarni bir butun mental tuzilma sifatida tashkil etish imkonini beruvchi birlik sifatida namoyon boʻladi.

"Ta'lim" konsepti misolida konsept va lugʻaviy maʼno oʻrtasidagi farqni yaqqol koʻrish mumkin. "Ta'lim" leksemasi lugʻatda, odatda, *bilim berish, malaka va koʻnikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi* sifatida izohlanadi [2, 27]. Biroq mazkur konsepti keltirilgan lugʻaviy maʼnodan ancha keng boʻlib, inson ongida *bilim, ilm, oʻqish, oʻqituvchi, oʻquvchi, maktab, dars, tarbiya, rivojlanish, tajriba va kelajak* kabi tushuncha hamda assotsiatsiyalarni faollashtiradi.

Demak, "lugʻaviy maʼno" soʻzning til tizimidagi nisbatan barqaror mazmunini ifodalasa, "konsept" inson ongida shakllangan bilim, tasavvur, assotsiatsiya, baho va tajribalarni mujassamlashtiruvchi murakkab mental tuzilmadir [3; 477]. Lugʻaviy maʼno va konsept oʻrtasidagi asosiy farq ularning qamrov doirasi va tabiatida namoyon boʻladi. Lugʻaviy maʼno til tizimida nisbatan barqaror va ijtimoiy jihatdan kodlangan mazmunni ifodalasa, konsept inson ongida shakllangan bilimlar, obrazlar, tasavvurlar, assotsiatsiyalar, baholar va tajribalarning murakkab majmuasini oʻz ichiga oladi. Shuning uchun konseptni faqat soʻzning maʼnosi bilan chegaralash toʻgʻri emas. Aksincha, soʻz konseptning tilda verbal ifodalanish vositalaridan biri sifatida qaraladi. Binobarin, konseptni insonning borliqni idrok etishi, anglashi, kategoriyalashi va til orqali ifodalashi jarayonlarini bogʻlab turuvchi kognitiv-lingvistik birlik sifatida tavsiflash mumkin. Aynan shu xususiyat konseptni zamonaviy kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslik tadqiqotlarining markaziy kategoriyalaridan biriga aylantiradi.

"Konsept" tushunchasi kognitiv fan, semantika va lingvomadaniyatshunoslikning ilmiy-metodologik apparatining muhim qismi hisoblanadi [4, 492].

Tadqiqot metodologiyasi. Kognitiv fan inson bilimni qanday qabul qilishi, saqlashi va qayta ishlashi masalalarini oʻrganadi. Shu sababli konsept inson ongidagi bilim tuzilmasi sifatida qaraladi. Semantikada til birliklarining qanday maʼno ifodalashi oʻrganiladi. Konsept esa til orqali ifodalanadigan mazmunning kognitiv asosini tushuntirishga yordam beradi.

Lingvomadaniyatshunoslik til va madaniyatning oʻzaro bogʻliqligini tahlil etadi. Masalan: "Bilim – aql chirogʻi" maqolini tahlil qilib koʻradigan boʻlsak, lingvomadaniy jihatdfan bu oddiygina "bilim yaxshi" degan fikrni anglatmaydi. Bu yerda "light-knowledge" metaforik mapping mavjud. Ya'ni oʻzbek madaniy-kognitiv modelida yorugʻlik – anglash, maʼrifat, toʻgʻri yoʻl, bilim esa inson ongini yorituvchi vosita degan tasavvur mavjud.

Lingvomadaniy yoʻnalishda konseptning tarkibiy va funksional xususiyatlarini oʻrganish S.G.Vorkachev, V.I. Karasik, G.G. Slyshkin, V.N. Teliya kabi olimlarning tadqiqotlarida alohida oʻrin egallaydi [5; 6; 7]. Xususan, Vorkachev lingvomadaniy konseptning semantik tuzilishida turli tabiatga ega komponentlar mavjudligini va mazkur tushunchaning fanlararo xarakterini ta'kidlaydi [8, 18].

Konsept chegaralari doimo aniq boʻlavermaydi [9]. Masalan, "ta'lim" konseptida "bilim" soʻzi asosiy mazmuniy komponentlardan biridir. "Ustoz" soʻzi esa bevosita ta'limni anglatmasa-da, u bilan assotsiativ maʼnoga ega. Shuningdek, "maktab" – ta'lim instituti, "kitob" soʻzi ta'lim vositasi sifatida ushbu konsept bilan bevosita bogʻliq. Bundan tashqari, "yorugʻlik", "boylik" soʻzlari metaforik-aksiologik jihatdan "ta'lim" konseptini anglatishga xizmat qiladi. Shuning uchun konseptning chegarasi aniq chiziq bilan ajralmaydi. Uning tarkibidagi birliklar konsept markaziga yaqin yoki uzoq joylashishiga koʻra yadro va periferik komponentlarni tashkil etishi mumkin.

"Konsept" tushunchasi zamonaviy tadqiqotlarda ikki xil nuqtayi nazardan oʻrganiladi:

1. Gnoseologik jihatdan konseptning qanday paydo boʻlishi, inson ongida qayerda "joylashishi", real voqelik bilan qanday munosabatga kirishishi va qanday shakllarda namoyon boʻlishi oʻrganiladi [4].
2. Tipologik jihatdan konseptning muayyan fan doirasida qanday tushunilishi va shu fan uchun qanday vazifani bajarishi oʻrganiladi.

"Konsept" atamasi tor maʼnoda tushuncha mazmuni degan maʼnoni anglatadi. Biroq ushbu ta'rifga aoslanib, konsept oʻzgarmas hodisa degan xulosaga kelmaslik lozim. Chunki nutqda qoʻllanish jarayonida unga yangi semantik belgilar qoʻshilib boradi, natijada uning mazmuni asta-sekin kengayadi va yangilanadi [6, 75].

Keng maʼnoda konsept milliy kolorit, konnotatsiyalar, shuningdek, tafakkurni ifodalash vositasi sifatidagi xususiyatlari va tilning kommunikativ funksiyasini ham oʻzida aks ettiradi.

Inson jamiyat va madaniyatdan tayyor holda turli bilimlar – urf-odatlar, qadriyatlar, ijtimoiy me'yorlar, tarixiy tajriba, an'analar, boshqa odamlarning tajribasini oʻzlashtiradi. Ammo inson ularni shunchaki mexanik ravishda saqlab qoʻymaydi, balki ongida ularni qayta ishlaydi va tizimlashtiradi. Natijada ular konsept tarkibida namoyon boʻlishi mumkin.

Zamonaviy tilshunoslikda “konseptosfera” atamasi ham mavjud. Mazkur atama D.S.Likhachyov tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo‘lib, uni muayyan til va madaniyatga xos konseptlar majmuyi mavjud bo‘lgan mental-kognitiv makon deb tushunish mumkin [10, 9]. Ya’ni bitta konsept alohida mavjud bo‘lishi bilan birga, boshqa ko‘plab konseptlar bilan aloqada bo‘ladi. Ana shu konseptlarning umumiy tizimi konseptosferani tashkil qiladi.

Konseptosfera sof mental soha hisoblanib, ning tarkibida konseptlar mavjud va ular inson ongida turlicha masalan, mental obrazlar, sxemalar, tushunchalar, freymlar, ssenariylar, yaxlit obrazlar shaklida namoyon bo‘lishi mumkin.

Likhachyovning fikriga ko‘ra, millat madaniyati qanchalik boy bo‘lsa, uning milliy tilining konseptosferasi ham shunchalik boy bo‘ladi. Shunga asoslaning aytishimiz mumkinki, tilni faqat grammatik va lug‘aviy tizim sifatida ko‘rish yetarli emas. Til ortida xalqning tarixi, madaniyati, tajribasi, qadriyatlari, dunyoqarashi ham mavjud. Ular konseptlarda aks etadi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Kognitiv lingvistikada konseptlarning uch turi farqlanadi.

1.Maxsus etnomadaniy va ijtimoiy-madaniy konseptlar muayyan madaniyatning o‘ziga xos xususiyatlarini bevosita ifodalaydi. Ya’ni bunday konseptni tushunish uchun shu xalqning madaniyati haqida ma’lum bilimga ega bo‘lish kerak. Bu turdagi konseptlarda milliylik juda kuchli.

2. Xususiylashmagan konseptlarda madaniy o‘ziga xoslik ochiq bevosita ko‘rinmaydi, madaniy xususiyat yashirin/implitsit tarzda ifodalanadi. Bunday konseptni to‘liq tushunish uchun madaniy assotsiatsiyalarni aniqlash talab qilinadi. Konsept tashqi tomondan universal ko‘rinishi mumkin, ammo uning qo‘llanishi yoki assotsiatsiyalarida milliy madaniyat aks etadi.

3. Universal konseptlar turli madaniyatlarda mavjud bo‘lib, muayyan xalqning o‘ziga xos madaniy belgilarini ifodalamasligi mumkin.

Konsept turli til birliklari orqali verbalizatsiya qilinishi mumkin, masalan, so‘zlar, so‘z birikmalari, frazeologik birliklar, gaplar, matnlar [11].

Oddiyroq, konkret konsept uchun bitta so‘zning o‘zi yetarli bo‘lishi mumkin. Misol uchun, muayyan predmet haqidagi obraz bitta so‘z orqali faollashadi. Ammo konseptning mazmuni murakkablashgani sari uni ifodalash uchun kattaroq birliklar talab etiladi. Demak, bundan konseptning murakkabligi oshgani sari uning verbalizatsiyasi ham kengayishi mumkin degan xulosaga kelish mumkin. Shu sababli konseptni o‘rganishda birgina kalit so‘zni qidirish yetarli emas.

Turli olimlar konseptning ichki tuzilishini turlicha ko‘rsatadilar. Y.S. Stepanov konseptni madaniyat fakti sifatida tadqiq etadi va uni uch komponent/qatlamga ajratib o‘rganadi [4].

1. Asosiy, dolzarb belgi – konseptning hozirgi va eng faol mazmuni.

2. Qo‘shimcha, “passiv”, tarixiy belgilar hozirgi inson ongida birinchi darajada faol bo‘lmasligi mumkin, lekin konseptning tarixiy shakllanishi bilan bog‘liq. Ya’ni konseptning hozirgi ma’nosida unchalik faol ko‘rinmasa ham, uning tarixiy-madaniy qatlamida saqlanib qoladi.

3. Ichki shakl – konseptning eng chuqur qatlami. Inson ko‘pincha bu ichki shaklni ongli ravishda sezmaydi.

S.G. Vorkachev esa konsept tarkibida uch asosiy komponentni ajratadi [5, 192].

Birinchi komponent bu kommunikativ jihatdan ahamiyatli bo‘lgan barcha axborotdir. Bunga so‘zning boshqa birliklar bilan turli aloqalari – paradigmatik, sintagmatik, so‘z yasash aloqalari ham kiradi. Ushbu komponent konseptni o‘rganishda faqat so‘zning o‘ziga emas, balki u boshqa so‘zlar bilan qanday munosabatga kirishishini o‘rganishni talab etadi.

Ikkinchi komponent – til belgisining barcha pragmatik axboroti. Bunda birlikning real kommunikatsiyada ishlatilishi ham konsept mazmunini shakllantirishda ahamiyatli. Pragmatik axborot orqali konseptning ishlatilish vaziyati, maqsadi, munosabat va ta’sir doirasi haqida ma’lumotga ega bo‘lish mumkin.

Uchinchi komponent so‘zning kognitiv xotirasi bo‘lib, so‘zning dastlabki vazifasi, ya’ni nomlanish maqsadi bilan bog‘liq semantik xususiyatlari va tilning ma’naviy-qadriyatlar tizimi bilan bog‘liq jihatlarni nazarda tutadi. Va aynan shu yerda konsept tarkibida madaniy-etnik komponent mavjudligini ko‘rish mumkin.

Stepanov bo‘yicha konseptning etimologik qatlam va dolzarb/aktual qatlami eng asosiy qismlarini tashkil etadi.

Z.D.Popova va I.A.Sterning esa konseptni o‘rganishda verbalizatorlarni yadro va periferik qismlarga ajratish lozimligini ta’kidlaydi [11, 181]. Ushbu model konsept maydonini oddiygina yadro-periferiya deb emas, balki markazdan uzoqlashib boruvchi konsentrik qatlamlar sifatida tasavvur qilishga yordam beradi.

ya’ni bunda yadro markazi – yaqin periferiya – uzoq periferiya – chekka periferiya birliklari ajratib tahlil qilinadi. “Ta’lim” konsept maydoni misolida ushbu modelni tahlil qilib ko‘raylik.

Yadro markazi ta’limning eng asosiy, bevosita mazmunini ifodalovchi komponentlar hisoblanadi. Bunda markaz asosan *education, learning, knowledge, teaching, teacher, student, school* kabi birliklar atrofida shakllanishi mumkin. Ularning chastotasi yadroning boshqa birliklariga qaraganda yuqori. Birliklarni semantik jihatdan tahlil qiladigan bo‘lsak, yadro ham mutlaqo bir xil darajadagi birliklardan iborat emasligiga guvoh bo‘lamiz.

Yaqin periferiyaga kiruvchi leksik birliklar odatda, yadroga nisbatan chastotasi pastroq, stilistik neytral, qo‘llanilish doirasi keng va minimal darajada kontekstga bog‘liq bo‘ladi. Bunga misol qilib ta’limning bevosita natijasi yoki jarayoni bilan aloqador *experience, wisdom, discipline, practice, study, instruction* kabi birliklarni keltirish mumkin. Shuning uchun yaqin periferiya konseptning asosiy mazmuniga hali juda yaqin, lekin yadro darajasidagi eng tipik va eng faol birliklar qatoriga kirmaydi.

Uzoq periferiya tarkibiga chastotasi past bo‘lgan til birliklari kiradi. Bu qatlamdagi muhim xususiyat birlikning kommunikativ ma’nosi uning asosiy ma’nosi bo‘lmasligi mumkin. Masalan, *success, career, opportunity, social status, achievement* kabi konseptual belgilar ta’lim konsepti bilan bilvosita bog‘liq, ammo uning eng tipik verbalizatorlari emas.

Chekka periferiya birliklarining chastotasi juda past. Bundan tashqari, bu birliklarning aksariyati ko‘p ma’noli, asosiy ma’nosidan tashqari ma’noda ishlatiladi, kuchli stilistik xususiyatga ega va emotsional-ekspressiv semalarni ifodalaydi. Ta’limni metaforik, baholovchi yoki madaniy jihatdan maxsus tarzda ifodalovchi komponentlar chekka periferiyaga misol bo‘lishi mumkin. “Knowledge is power” maqolidagi “knowledge” so‘zi ta’lim konsepti bilan bog‘liq, lekin maqol bevosita “ta’lim olish jarayoni”ni emas, bilimning “kuch va ijtimoiy imkoniyat beruvchi xususiyati”ni konseptuallashtiradi. Shuning uchun u ta’lim konseptining periferik konseptual belgisi sifatida talqin qilinishi mumkin.

Popova-Sternin modelida “periferiya” shunchaki “kam ahamiyatli” birlik degani emas. Periferiyaga uzoqlashish konsept bilan bog‘liqlikning yo‘qolishi emas, balki uning verbal ifodasining tipiklik, chastota, kontekstual mustaqillik va stilistik neytrallik darajasining o‘zgarishini anglatadi.

Xulosa. Umuman olganda, konseptni kognitiv va lingvomadaniy yondashuvlar birligida tadqiq etish uning mazmuniy tuzilishini yanada to‘liq ochib berish imkonini beradi. Konsept – til vositasida nomlanadigan, biroq o‘z mazmunida individual va kollektiv bilim, madaniy tajriba, obraz, assotsiatsiya va qadriyatlarni mujassamlashtiradigan dinamik mental tuzilma sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois kelgusidagi tadqiqotlarda konseptlarning turli tillardagi verbalizatsiyasini qiyosiy o‘rganish, ularning milliy-madaniy komponentlarini aniqlash hamda yadro va periferik qatlamlarining shakllanish mexanizmlarini korpus materiallari asosida tadqiq etish muhim ilmiy istiqbollardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Аскольдов, С. А. Концепт и слово // Русская речь. Новая серия. Вып. 2. – Ленинград: Academia, 1928. – С. 28–44.

2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 5 jildlik. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006–2008. 27-173 b.

3. Карасик, В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002. – 477 с.

4. Степанов, Ю. С. Константы: Словарь русской культуры. – 3-е изд., испр. и доп. – Москва: Академический проект, 2004. – 992 с.

5. Воркачев, С. Г. Счастье как лингвокультурный концепт. – Москва: ИТДГК «Гнозис», 2004. – 192 с.

6. Карасик, В. И., Слышкин, Г. Г. Лингвокультурный концепт как единица исследования // Методологические проблемы когнитивной лингвистики. – 2001. – С. 75–80.

7. Телия, В. Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – Москва: Школа «Языки русской культуры», 1996. – 288 с.

8. Воркачев, С. Г. Концепт как слово // Концепты: научные труды Центроконцепта. – 2003. – Вып. 1. – С. 18.

9. Карасик, В. И. (2002). Языковой круг: Личность, концепты, дискурс. Волгоград: Перемена.

10.Лихачёв, Д. С. (1993). Концептосфера русского языка. Известия Российской академии наук. Серия литературы и языка, 52(1).– С. 9.

11. Попова, З. Д., Стернин, И. А. Когнитивная лингвистика. – Москва: АСТ; Восток–Запад, 2007. – С. 181.

12.Лихачёв, Д. С. Концептосфера русского языка // Известия Российской академии наук. Серия литературы и языка. – 1993. – Т. 52, № 1. 3-9.

13.Кубрякова, Е. С. Начала когнитивной науки о языке: концепция и категории. – Москва: Языки славянской культуры, 2004.

14.Кубрякова, Е. С., Демьянков, В. З., Панкрац, Ю. Г., Лузина, Л. Г. Краткий словарь когнитивных терминов. – Москва: Филологический факультет МГУ им. М. В. Ломоносова, 1996. – 245 с.

15.Маслова, В. А. Лингвокультурология: учебное пособие. – Москва: Академия, 2001. – 208 с.

16.Маслова, В. А. Когнитивная лингвистика: учебное пособие. – Москва: ТетраСистемс, 2004. – 256 с.

17.Арутюнова, Н. Д. Язык и мир человека. – 2-е изд., испр. – Москва: Языки русской культуры, 1999. – 896 с.

18.Карасик, В. И. Лингвокультурные концепты: подходы к изучению // Актуальные проблемы филологии и педагогической лингвистики. – 2002.

19.Слышкин, Г. Г. Лингвокультурные концепты и метаконцепты. – Волгоград: Перемена, 2004. – 340 с.